

**BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH:
O'QUV DASTURI-O'QITUVUCHI-BAHOLASH
KALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-
BAHOLASH”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-
УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»**

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT:
CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT”**

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE**

2023-yil 19-oktabr

BUXORO – 2023

Ilmiy anjuman dasturiy qo‘mitasi

- | | |
|----------------|--|
| O.X.Xamidov | – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor, rais. . |
| T.H.Rasulov | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini |
| F.N.Nurulloyev | – IT va IFR departamenti boshlig‘i, a’zo. |
| A.R.Hamroyev | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a’zo. |
| M.M.Yuldasheva | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), a’zo. |
| A.Sh.Husenova | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), kotib. |

Ilmiy anjuman tashkiliy qo‘mitasi

- | | |
|-----------------|---|
| T.H.Rasulov | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais. |
| O‘.U.Rashidov | – Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a’zo. |
| F.N.Nurulloyev | – IT va IFR departamenti boshlig‘i, a’zo. |
| A.R.Hamroyev | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a’zo. |
| R.A.Qo‘ldoshev | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a’zo. |
| M.G.Navro‘zova | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a’zo. |
| N.B.Boymurodova | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo. |
| A.Sh.Husenova | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), kotib. |

Mas’ul muharrir

A.R.Hamroyev, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Taqrizchilar:

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor.

F.M.Qosimov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

komplekslariga birlashtirish tendensiyasi allaqachon mavjud. Bunday darsliklarning mazmuniga o‘zgartirish kiritish yoki umuman olib tashlash va uning o‘rniga yangisini qo‘yish oson. Internet orqali materialni yangilash uchun ajoyib imkoniyat mavjud. Lekin, shu bilan birga, an’anaviy ta’lim vositalari va usullaridan ham voz kechib bo‘lmaydi. O‘rni bilan o‘qitishning an’anaviy usullaridan ham samarali foydalanishni ham nazarda tutish lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumukinki, har qanday mukammal elektron resurs ham insonning jonli muloqoti va mahoratlari o‘qituvchining taqdirimizdagi ishtirokining o‘rnini bosa olmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” 2019-yil 29-apreldagi 5712-son farmoni // Xalq so‘zi. Toshkent, 2019-yil. 30-aprel. 1-2-sahifalar.
2. Saidova Mt Sh. Zamonaviy darsliklarninig mazmuni, tuzikishi, ilmiy-pedagogik mohiyati. NamDU Axborotnama, № 5, 2023y.
3. Sobirova M.Yu. Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages
4. Shodiyev D. Darslik yaratish metodologiyasi. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomli O‘zPFITI, 1994.
5. Tursunov Q., Normamatova N. Darslik tuzilishiga qo‘yiladigan zamonaviy metodik talablar. // Xalq ta’limi, 2015-yil 2-son. – B.83-88.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni / <https://lex.uz/docs/5841077>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini 2030 yilgacha tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son farmoni // Xalq so‘zi. Toshkent, 2019 yil. 9 oktyabr. 1-2-sahifalar.
8. Mahmudov Nizomiddin. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, T.: 2007
9. Sobirova M. Nutq o‘stirishning noan’anaviy usullari //Ta’lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari. "O‘zbek tili" doimiy anjumani beshinchchi yig‘inining tezislari to‘plami. – T» 1999. 188-190 betlar.

BOSHLANG‘ICH SINF YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATILISHINING METODIK IMKONIYATLARI

SH.M.Farmonova
Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Maqolada ona tili ta’limi mazmunini yangilash, zamonaviy ona tili darsliklarining tuzilishi, o‘quv topshiriqlari orqali ona tilini o‘qitishga innovasion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona tili o‘qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish; etnolingivistikaning so‘nggi yutuqlarini ta’lim jarayoniga jalb qilish bugungi kunning muhim vazifasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mashq, konsepsiya, o‘quv materiali, darslik, inovatsion yondashuv, nutq, tinglash, mashg‘ulot.

Bugungi kunda o‘zbek tilining ona tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish, zamonaviy o‘qitish metodikasini joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoxda. Mamlakatda shakllangan yangi til siyosati uning ta’limiga ham zarur talablarni qo‘ymoqda. Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini

shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz.

Modomiki shunday ekan, ona tili darsliklariga kiritilgan mashqlar va o'quv topshiriqlari o'quvchilarda ona tili bo'yicha bir qator lingvistik bilimlarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. O'quv topshiriqlarini tuzishga asos bo'luvchi o'quv materiallarini tanlash, ona tili ta'limi maqsadini, mazmunini belgilash borasida mustaqillikning dastlabki yillarda tizimli tadqiqotlar olib borildi.

Darhaqiqat, ona tili, milliy so'zlar aqliy rivojlanish hamda dunyoni anglashning asosidir. O'quvchi nutqining o'z vaqtida rivojlanishiga g'amxo'rlik qilish, savodxonligiga e'tibor berish juda muhimdir. O'quvchining nutqi qanchalik boy va mantiqli bo'lsa, uning o'z fikrlarini ifodalashi shunchalik oson kechadi, olamni, borliqni anglash qobiliyati qanchalik keng bo'lsa, o'quvchilar turli nutq vaziyatlarida tengdoshlar yoki kattalar bilan mazmunli va to'laqonli muloqotga kirisha oladi, tafakkuri ham shunchalik faol rivojlanishda bo'ladi. Bularning barchasi dars mashg'ulotlarida o'quvchini o'quv topshiriqlari orqali to'g'ri yo'naltirish, to'g'ri savol berish, mazmunli va mantiqli javob berishiga bog'liqidir. O'quvchi uyda, sinfda va ko'chada foydalanadigan ona tili orqali atrofidagi olam va inson faoliyati haqida dastlabki ma'lumotlarni oladi. Shuning uchun ham mактабning birinchi vazifasi bolalarni o'z ona tilida ravon, mantiqan izchil gapirishga o'rgatishdir. O'quvchilar o'z ona tilida qanchalik yaxshi nutq so'zlay olsalar, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda shunchalik yorqinroq, chirolyi va sermazmun ifodalay oladilar. Demak, bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi.

Ona tili orqali o'quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy merosini o'rganishlari kerak. Albatta, bu pragmatik xarakterdagи o'quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o'rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar, matnlar o'quvchining lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib borish hali muammoligicha qolmoqda. Ona tili darslarida anglash, fahmlash, nutq so'zlashni o'rgatibgina qolmay, balki topshiriqlar orqali o'quv adabiyotlariga yo'naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonch hosil qilishadi.

Agar ona tili mashg'ulotlarida o'quv topshiriqlari o'z o'rnida to'g'ri qo'llanilsa, o'quvchilar ma'lumotlar bilan ishlay olishga topshiriqlar orqali to'g'ri yo'naltirilsa, axborot texnologiyalari asrida manba muammo bo'lmaydi. Endi bilimdon o'quvchilar tayyorlash vaqtি o'tdi. Bugungi davrning talabi biluvchi, bilib oluvchi o'quvchilarni tarbiyalashdir. Agar o'quvchiga to'g'ri va maqsadli savol berilsa, hayot uchun foydali topshiriqlarni bajarishga o'rgatilsa, zarur nutqiy malakalar mashq orqali hosil qildirilsa, ijodiy tafakkur sohiblari etishib chiqishiga sharoit yaratilgan bo'ladi.

X.Muxitdinova o'quv topshiriqlari, jumladan, mashqlarning ahamiyati haqida shunday deydi: "Hozirgi kunda o'zbek tilini o'qitish tamoyillari, ularda beriladigan o'quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida o'zbek tilini o'rgatishga yo'naltirilgan mashqlar tarkibi va turlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy ta'lim mashg'ulotlariga moslashtirib qo'llash yo'llarini topish o'zbek tili ta'limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir" [1].

O'quv topshiriqlari faqat maktabda emas, maktabdan tashqari oilada, ko'cha-ko'yda ham ahamiyatlidir. Ota-onalar ham mahalladoshlar ham o'quvchiga savol berganda uning yoshi, intellektual imkoniyati va psixo-fiziologiyasini inobatga olishlari lozim. Bolani kichik yoshdan atrofni kuzatishga, tushunmagan, ilk marta ko'rgan narsa-hodisalar haqida ma'lumot olishga qaratilgan savollarni berishga o'rgatish, avvalo, ota-onaning vazifasi. O'quvchi maktabga qadam qo'yanida o'z ona tilida gaplasha oladigan, atrofidagilarning so'zlarini tushuna oladigan darajada rivojlangan bo'ladi. Shu bois, ona tili ta'limining vazifasi o'quvchini gapirish va tinglab tushunishga o'rgatishdan iborat bo'lmaydi. Til ko'nikmalarining bu ikki turi bolaga tili chiqqan paytdan boshlab singib bo'lgani inobatga olinsa, maktabda ona tili ta'limida dastlabki

shakllantiriladigan ko‘nikmalar – o‘qish va yozishni o‘rgatish ekanligi ayon bo‘ladi, biroq bu til ta’limining to‘rt muhim unsuri bo‘lgan – gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari ustida ishlashni to‘xtatish kerak degani emas.

Ona tili ta’limidan farqli ravishda boshqa tilni o‘rganish jarayonida bajariladigan mashqlarning asosiy qismi muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, keyingi paytlarda bunday mashqlarni ayrim metodistlar nutq mashqlari va til mashqlariga ajratishni tavsiya etmoqdalar [1], degan mulohazasi nihoyatda to‘g‘ri bo‘lib, mashqlar nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Nutqiy ko‘nikmalar nutq faoliyatining 4 asosiy turi: o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozuvni egallash orqali yuzaga keladi va o‘quvchilarining ikkinchi tilni o‘rganish davrida olgan bilimlarini amaliy nutqiy faoliyatda sobitqadamlik bilan mustaqil ravishda qo‘llay olish qobiliyati - nutqiy malakani hosil qilishga yordam beradi.

I.A.Zimnyaya ta’rificha, “malaka mashqlar natijasida harakatlarning yuqori mukammallikka erishuvi va nutqiy jarayonlarning avtomatlashuvidir”[2].

X.Muxitdinova so‘zlashish, muloqot yuritish jarayoni fikrni leksik, grammatik va fonetik jihatdan rasmiylashtirishning eng samarali darajasini – yuqori darajada avtomatlashgan nutqiy ko‘nikmalarni, ya’ni nutqiy malaka hosil qilinishini talab etadi [1].

Ta’limning sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator, ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar – mashqlar tizimi, shuningdek savol va topshiriqlardir. Bular – ona tili ta’limi mazmunini, o‘qitish metodikaning asosini tashkil etadi.

Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta’lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Ya.Lerner [6] va M.N.Skatkinlar ta’lim mazmuniga o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarining o‘zlashtirishlariga mo‘ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar.

Ilmiy manbalarda “ta’lim mazmuni” tushunchasi bilan birga “*o‘quv materiali*” atamasi ham qo‘llaniladi. Didaktikada o‘quv materiali tushunchasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda u “ta’lim mazmuni” tushunchasiga teng bo‘lsa, tor ma’noda ma’lum darajada o‘rganilishi kerak bo‘lgan, o‘quvchilarining o‘zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi tushuniladi.

Ta’lim mazmuni esa 1) o‘quv rejalar, 2) o‘quv dasturlari, 3) darsliklar hamda 4) o‘quv-metodik qo‘llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o‘quvchilarining o‘rganishlari uchun tanlangan va ularning o‘zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o‘z ichiga oladi [5]. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak, degan ta’kid, fikrimizcha, “Ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir.

Ajdoddlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha etib kelgan tafakkurning eng ilg‘or mahsuli bo‘lgan *maqol, matal, hikmatli so‘zlar, tasviriy ifodalar, iboralar* ona tili ta’limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har o‘quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O‘z o‘rnida va o‘z vaqtida o‘quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va o‘zlarida hosil bo‘lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Amaldagi dastur va darsliklar o‘quvchini ona tili ta’limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi zarur. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma’lumotlar bazasi emas, balki o‘quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanishni o‘rgatadigan o‘quv topshiriqlari tashkil etmog‘i lozim. Chunki maktabda ona tili ta’limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga etkazib berishni talab etadi. Demak, o‘quv topshiriqlari o‘quvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, topshiriqlar – o‘quvchilarini mavzu ustida maqsadli, samarali ishlashlarini ta’minlaydi, shu bilan birga mashg‘ulotda egallagan ko‘nikma va malakalarni baholash, sinab ko‘rish uchun ham ishlatiladi.

Maktabda muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak degan ta’kid, fikrimizcha, “Ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir. Ajdoddardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha etib kelgan tafakkurning eng ilg‘or mahsuli bo‘lgan *maqol*, *matal*, *hikmatli so‘zlar*, *tasviriy ifodalar*, *iboralar* ona tili ta’limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har o‘quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O‘z o‘rnida va o‘z vaqtida o‘quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va o‘zlarida hosil bo‘lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Amaldagi dastur va darsliklar o‘quvchini ona tili ta’limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma’lumotlar bazasi emas, balki o‘quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanishni o‘rgatadigan o‘quv topshiriqlari tashkil etmog‘i lozim.

Hozirda respublika miqyosida amalda bo‘lgan maktab darsliklaridagi o‘quv topshiriqlarining ayrimlari belgilangan talablarni qondira olmaydi. Chunonchi, ona tili darslarida tez-tez uchraydigan “*Matndan unlilarni topib tavsiflang*” kabilarni o‘quv topshiriqlari darajasida baholab bo‘lmaydi, sababki, ular o‘quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qila oladigan etarli ko‘nikma, malakalarni hosil qilishi qiyin.

Darslikni parovozga qiyos qilib, uning vagonlari sifatida har bir mavzuga taalluqli lug‘atlar, jumladan, orfografiya uchun imlo lug‘ati, orfoepiya uchun talaffuz mashqlari to‘plami, leksika uchun izohli lug‘at, morfologiya uchun morfem lug‘at va boshqalardan samarali foydalanilsa, ko‘zlangan natijaga erishish mumkin [3]. Axborot texnologiyalari asrida ma’lumotlar bazasi muammo emas. Shuning uchun darsliklarning topshiriqlar qismi mukammal, tizimli, puxta ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bugungi kun ona tili ta’limi maktabda o‘rgatilishi belgilangan til sathlaridan qat’i nazar, hatto fonetika o‘qitishda ham o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, shu orqali o‘z fikrini og‘zaki va yozma shakllarda mustaqil, ravon, lo‘nda va jozibali ifodalay olishiga erishishni talab etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, albatta, o‘zbek tilining tengsiz xazinasi hisoblangan maxsus leksik boyliklarsiz samarali bo‘lishi qiyin.

Nafaqat fonetika o‘qitishda, balki tilning barcha sathlarini o‘qitishda *matal*, *topishmoq*, *tez aytish*, *latifa*, *lof*, *terma* va *doston* namunalaridan tahlil materiali foydalanish ona tili ta’limida samaradorlikka erishishda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qila oladi.

O‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitish bo‘yicha yangi yondashuvlar joriy etilmoqda, uning dastlabki nishonalari boshlang‘ich sinf ona tili darsliklari mazmunida aks etgan. Integrasiyalashgan yangi “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi o‘quvchilarni turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan, biroq mazkur darsliklarning o‘quv topshiriqlari qismi oldinga qo‘ylgan katta marrani bosib o‘tishga moslanmagan. Darsni, ona tili ta’limi mazmuni o‘quv topshiriqlari yuzaga chiqarishini inobatga olsak, yangi yaratilgan metodikani harakatga keltiruvchi ta’lim mazmunida muhim ahamiyatga ega ekan ma’lum bo‘ladi. O‘quv topshiriqlari metodikaning asosini tashkil etadi. Ona tili o‘qitish metodikasini isloh qilishning asosi – bu mashq va topshiriqlarni qanday qo‘yish, qanday savol berishga bog‘liq. Bu esa, bugungi kunda ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish zaruruatini o‘rtaga qo‘ymoqda.

Demak, o‘quvchilarga hayoti davomida har qanday vaziyatda, har onda asqotadigan bilim va ko‘nikmalar berilishi kerak. Yangicha yondashuvlarning o‘z vaqtida amaliyatga joriy etilayotgani, muammoning manbasi kech bo‘lsa-da aniqlangani bu jarayonni sog‘lomlashtirishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Мухиддинова Ҳ. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. ф. номз. - дисс . – Тошкент: ТДПИ, 2011. – 270 б.
2. Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом. 1991. -№ 3. - С. 91-95.
3. Нематова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқитувчининг мустақил фаолияти. Она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар. – Тошкент, 2001. – 96 б.
4. Сафарова Р., Нуржанова Р., Нематов Ш., Кучарова Ф. Замонавий дарсликларда концентризм принципи асосида тақдим этиладиган ўқув материалларини танлаш ва блокларга ажратиш. –Т.: Фан ва технология, 2013.
– 128 б.
5. Мирзаев И.К. Таълим дарсликдан бошланади. Республика илмийамалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТДПУ, 2008. – 244–248 б.
6. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер. – М.: Педагогика, 1981. –186 с.

MILLIY O'QUV DASTURNING DIDAKTIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Husenova Aziza Sharipovna

Buxoro davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lif kafedrasini katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari haqida mulohazalar hamda Respublika ta'lif inspeksiyasi tomonidan milliy o'quv dasturi loyihasining muhokamasi haqida so'z yuritamiz

Kalit so'zlar: Mulohaza, texnologiya, maqsad vazifa, o'quv dasturi, ta'lif standarti, boshlang'ich ta'lif, matematika, bilim va ko'nikma, professionalizm, innovatsion salohiyat.

Аннотация: В статье идет речь о комментариях по научно-методическим основам реализации национальной учебной программы и обсуждении проекта национальной учебной программы республиканской инспекцией образования.

Ключевые слова: рефлексия, технология, цель, задача, учебная программа, образовательный стандарт, начальное образование, математика, знания и умения, профессионализм, инновационный потенциал.

Abstarct: We are talking about comments on the scientific-methodical foundations of the implementation of the national curriculum and the discussion of the draft of the national curriculum by the Republic's Education Inspectorate.

Key words: Reflection, technology, goal, task, curriculum, educational standard, primary education, mathematics, knowledge and skills, professionalism, innovative potential.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgarib, barcha sohalar qatori ta'lif tizimi oldiga ham o'ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo'yemoqda. Fan va texnologiyalar tamadduni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar, globallashuv va integrallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, pirovardida ta'lif sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'yemoqda.

Ta'lif sifati yangi bosqichga ko'tarilishi uchun o'qituvchilarni akademik mustaqilligiga ham erishish kerak, ya'ni o'qituvchi faqat bitta darslikka bog'lanib qolmasdan, ta'lif standartlari asosida dars jarayonini tashkil qila olishi va darsi uchun kerakli ishlanmalarni yarata olishi lozim. Bundan tashqari o'qituvchi-pedagoglar didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

MUNDARIJA

O.X.Xamidov. KIRISH SO‘ZI	3
O.X.Xamidov. BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA XORIJ TAJRIBALARINI QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	4

1-SEKTOR: BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR 6

Buse Seval İlman, Doç.Dr.Nilay Dereobalı. Erken Çocukluk Eğitiminde Aktif Öğrenme Yaklaşımı Üzerine Yapılan Araştırmaların Sistematiske Derleme Çalışması.....	13
Erdal YÜKSEL, Doç.Dr.Nilay DEREOBALI. HİKAYE OKUMA ETKİNLİKLERİNİN OKULÖNCESİ DÖNEM ÇOCUKLARININ KELİME DAĞARCIĞINA ETKİSİNİN BEYİN FIRTINASI TEKNİĞİ ARACILIĞIYLA DEĞERLENDİRİLMESİ	25
Шерифетдинова Эльвина Рустемовна. ПРОБЛЕМЫ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	41
Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BUGUNGI TA’LIM JARAYONI	43
Бабаева Шоира Баймурадовна. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОПРЕДЕЛЕНИЯ И ДАЛЬНЕЙШЕЙ РАБОТЫ С ОДАРЁННЫМИ ДЕТЬМИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.....	46
Nigmatova Mayjuda Maxmudovna. MAKTABGACHA TA’LIMDA XORIJIY TAJRIBA	49
Azimov Yunus Yusupovich. BOSHLANG‘ICH TA’LIM TO‘G‘RISIDA AYRIM MULOHAZALAR	52
Хусенова Азиза Шариповна. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ В ОПРЕДЕЛЕНИИ УРОВНЯ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ИССЛЕДОВАНИЯХ PIRLS	55
Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi. BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI	59
Рахматуллина Шаура Мажитовна. ОБНОВЛЕННЫЙ ФГОС НОО ЕГО ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	68

2-SEKTOR: MILLIY O‘QUV DASTURINING AMALIYOTGA JORIY ETILISHI, YANGI AVLOD DARSLIKLARI..... 71

Saidova Muhabbat Shukrullayevna. YANGI AVLOD DARSLIKLARI TA’LIM JARAYONINING MUHIM BO‘G‘INI SIFATIDA	71
SH.M.Farmonova. BOSHLANG‘ICH SINF YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATILISHINING METODIK IMKONIYATLARI	72
Husenova Aziza Sharipovna. MILLIY O‘QUV DASTURNING DIDAKTIK ASOSLARI VA UNING TA’LIM TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.....	78
X. Gulyamova. OLIY TA’LIMDA TALABALARNI MAKTABDA LEKSIKOLOGIYANI O‘QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	80
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi. YANGI AVLOD DARSLIKLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI YORITILISHI BORASIDA.....	85
Jumayeva Habiba G‘afarovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN YANGI AVLOD DARSLIKLARINING JORIY ETILISHI.....	88
Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna. YANGI AVLOD DARSLIKARI - O‘QUVCHILARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSI	90
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MILLIY O‘QUV DASTURI VA YANGI AVLOD DARSLIKLARI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI.....	93

3-SEKTOR: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBALAR..... 96

Azimov Yunus Yusupovich, Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich. O‘QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH (PIRLS) TIZIMIGA TAYYORLASH.....	96
Jahongir Yuldashev. STEAM – YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH	98